IBN AL-ASIR HAYOT YO'LI VA ILMIY ME'ROSI

Madaminov Murodjon,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Tarix mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.
murodjonmadaminov999@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta asr musulmon Sharqining yirik tarixchi va muhaddis olimlaridan biri Izzuddin Ibn al-Asir (1160–1233) hayot yo'li hamda uning boy ilmiy merosini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Ibn al-Asir, «Al-Komil fit-tarix», «Usd al-g'oba», islom tarixshunosligi, manbashunoslik, o'rta asrlar Sharqi.

Abu'l-Hasan Izzuddin Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ash-Shayboniy al-Jazariy (vaf. 630/1233) — "Al-Komil fit-tarix" va "Usd al-G'oba" nomli asarlari bilan mashhur bo'lgan yirik tarixchi, adib va muhaddisdir. Ibn al-Asir hijriy 555-yil 4- Jumodul avvalda (1160-yil 12-may) Jazirada tug'ilgan. Mazkur shahar hozirgi Turkiyaning janubi-sharqida joylashgan Jizre shahriga to'g'ri keladi. Shu sababli unga "al-Jazariy" nisbasi berilgan. Otasi Asiruddin laqabini olganligi bois esa u "Ibn al-Asir", ya'ni "Asirning o'g'li" kunyasi bilan mashhur bo'lgan. Ibn al-Asirning otasi Asiruddin dastlab Iroq hududida yashagan, keyinchalik esa Buvayhiy hukmdori Adudud-davlaning bosimi sababli Jaziraga ko'chib borgan Bakr ibn Voil qabilasining Shaybon urug'iga mansub oiladan edi. Ibn al-Asirning o'z asarlarida keltirishicha, uning otasi Musul[1] otabegi Imoduddin Zangiy davrida (1127–1146) vazir Jamoluddinning Jaziradagi noibi bo'lgan. Shuningdek, Mavdud ibn Imoduddin Zangiy davrida (1149–1170) esa Jazira Divon al-xarojining boshlig'i, ya'ni soliqlarni yig'ishga mas'ul yuqori lavozimli amaldor sifatida faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, u savdo ishlari bilan ham shug'ullangan, shuningdek Qasruharb nomli qishlog'i hamda Aqima qishlog'idagi xo'jaligida dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'lgan [1]. Ibn al-Asir otasining vafot sanasi haqida aniq ma'lumot bermaydi. Biroq uning hijriy 587-yilda (1191) hali hayot bo'lganligi haqida "At-Tarix al-bahir"

asarida ma’lumot keltiriladi. Asiruddin o‘zining uch o‘g‘li — keyinchalik barchasi ilm-fan sohasida shuhrat qozongan Majduddin, Izzuddin va Ziyouddinning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan va ularni o‘z davrining eng yetuk ustozlari huzuriga yuborgan. Izzuddin yigirma bir yoshida haj safariga boradi va Makka hamda Madina shaharlarida ayrim mashhur olimlar bilan uchrashib, ulardan hadis ilmini o‘rganadi. Qaytish yo‘lida esa bir muddat Bag‘dodda qolib, Shofe’iy faqihi Shayx Abu’l-Qosim Yu‘aysh hamda muhaddis Ibn Sukaynaning darslarida qatnashadi. Hijriy 579-yilda (1183) Asiruddin farzandlarining tahsilini ko‘zlab Jaziradan chiqib, o‘sha davrning eng muhim ilm va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Musulga ko‘chib o‘rnashadi. Shundan so‘ng Izzuddin Ibn al-Asir Abu’l-Fazl Abdulloh at-Tusiy, Abu’l-Faraj Yahyo as-Saqafiy va Ibn Shabba an-Nahviy al-Muqri’ kabi mashhur olimlarning shogirdi bo‘ladi. Uning ustozlari orasida yana Abu Muhammad Abdulloh at-Tikritiy, Abu’l-Abbos Ahmad ibn Afdaluzzamon, Jamoluddin Abu Ali al-Hamaviy, Abu’l-Faraj Abdulmun’im al-Harroniy, Abu Hafs Umar al-Bag‘dodiy, Abdulmuhsin al-Xatib at-Tusiy va Qozi Ibn G‘anaim al-Halabiy kabi allomalar ham bor edi. Ibn al-Asir ilm tahsil qilgan ana shu yillarda Musul otabegining og‘zaki xabarlarini xalifaga yetkazish uchun bir necha marta Bag‘dodga borib-kelgan. U har safar Bag‘dodga borganda nafaqat Abdulmun’im ibn Kulayb kabi o‘z davrining mashhur olimlaridan, balki Bag‘dod kutubxonalaridagi qimmatli kitoblar hamda qo‘lga kiritishi mumkin bo‘lgan rasmiy hujjatlardan ham samarali foydalangan. Shu bilan birga, u otabegning elchisi sifatida Damashq, Halab va Quddusga ham borgan. Elchilik vazifasini ado etish bilan bir qatorda, ko‘plab faqihlar, qorilar, muhaddislar va nahv olimlaridan turli ilmlarni ham tahsil olgan. Hijriy 584-yilda (1188) Quddus fath qilinganidan so‘ng Damashqda Salohiddin Ayyubiy bilan uchrashgan. Ibn al-Asir o‘sha yili hukmdorning Antokiya knyazligiga qarshi uyushtirgan yurishida Musul qo‘shini safida tarixchi sifatida ham qatnashgan. Shundan so‘ng u yana Musulga qaytib, umrining oxirigacha hayotini otabeg Badruddin Lu’lu’ homiyligida o‘tkazgan. Ibn al-Asir umrining so‘nggi yillarida o‘zini to‘liq hadis ilmiga bag‘ishlagan. Yoshi ulg‘aygan bo‘lishiga qaramay, hadis

ilmi bo‘yicha shogirdlar yetishtirgan. U ayniqsa sahobalar tarjimai hollari hamda hadis roviylarining nisbalariga oid asarlar yozishga alohida e’tibor qaratgan. Ibn al-Asir 630-yil 25 Sha’bonda (1233-yil 6-iyun) Musulda vafot etgan.[1] Hozir uning Musuldagi qabri ustida 1939-yilda qurilgan katta maqbara mavjud. Ibn al-Asir o‘zining “Al-Komil fit-tarix” nomli asari bilan haqli ravishda katta shuhrat qozongan. Shu bilan birga, u hadis ilmida hofizlik darajasiga yetgan, usul al-hadis, siyrat, adabiyot, shuningdek sulolalar va urug‘larning nasablariga oid ilmlarda ham ustoz darajasida tan olingan edi. Uning uyi doimo olimlar va adiblar bilan gavjum bo‘lgan. U kuchli xotira, teran zehn va kamtarlik sohibi edi. U mansab va martaba orttirishni istamagan, o‘ziga hurmat ko‘rsatgan Zangiylar va Ayyubiylar tomonidan taklif qilingan barcha lavozimlarni rad etgan.

Ibn al-Asirning asarlari

1. Al-Komil fit-tarix

Bu asar Ibn al-Asirga o‘rta asrlarning eng buyuk va eng ishonchli tarixchilaridan biri bo‘lish maqomini bergan umumiy tarixni bayon qiluvchi asaridir. Asar ilk bor Carl Johan Tornberg tomonidan nashr qilingan (Leyden, 1851–1876), keyinchalik esa bir necha bor qayta nashr etilib, dunyoning turli tillariga tarjima qilingan.

2. At-Tarix al-bahir

Ibn al-Asir bu asarini Zangiylarning Islom va musulmonlar oldidagi xizmatlarini e’tirof etish, ularning nomini abadiylashtirish hamda ularni ibratli sulola sifatida tanitish maqsadida yozgan. Muallif ushbu asarni yozishda, avvalo, otasidan eshitgan xabarlarga tayangan. Bundan tashqari, u Ibn Asokirning Tarixi Madiati Damashq, Ibn al-Adimning Axbor Halab, Imoduddin Isfahoniyning ayrim asarlari, voqealarning bevosita guvohlari, shuningdek “Al-Komil”ni yozishda foydalangan manbalar va rasmiy hujjatlardan ham foydalangan. Asarni yozish Nuruddin Arslonshohning moddiy va ma’naviy ko‘magi bilan boshlangan. Biroq kitob uning o‘g‘li al-Malik al-Qohir Izzuddin Mas’ud davrida (1211–1218) tugallanib, unga taqdim etilgan. Asarda Zangiylar sulolasining ajdodi Qosimud-

davla Aksungurdan boshlab Nuruddin Arslonshohning vafotigacha (607/1211) bo‘lgan voqealar qamrab olingan. Mazkur asar, “Al-Komil” bilan mazmunan uyg‘un bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda undan farqlanadi. Shu bilan birga, unda “Al-Komil”da uchramaydigan ayrim muhim ma’lumotlar ham mavjud. Masalan, unda Imoduddin Zangiy otasi o‘ldirilganidan keyin hali yosh bo‘lishiga qaramay, Musul amirlari bilan birga janglarda qatnashgani zikr qilinadi. Bu holat uning keyinchalik harbiy va siyosiy sohada erishgan muvaffaqiyatlarining sabablarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, asarda Zangiylar davridagi ilmiy va ma’muriy muassasalar, ularning Musulga ko‘rsatgan xizmatlari, Imoduddin Zangiy va Nuruddin Mahmud Zangiyning salibchilarga qarshi ko‘rsatgan qahramonliklari ham yoritilgan. Ibn al-Asir “Al-Komil”da voqealarni tarixchi sifatida sodda, ravon va lo‘nda uslubda bayon etgan bo‘lsa, “At-Tarix al-bahir”da esa uning adiblik qobiliyati ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki unda badiiy bezakli iboralar, maqol-matallar va zamondosh shoirlar — Muhammad al-Qaysaroniy, Ahmad at-Trablusiy kabi shaxslarning she’riy namunalariga ham o‘rin berilgan.

3. Usd al-G‘oba fiy ma‘rifatis-Sahoba

Bu asar sahobalarning hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi asarlar orasida juda yuksak va alohida mavqega ega. Asar ilk bor Misrda chop etilgan (Qohira, 1285–1287 / 1868–1870), keyinchalik esa bir necha bor qayta nashr qilingan.

4. Al-Lubob fiy tahzib al-Ansob

Bu asar Abu Sa’d Abdulkarim Sam’oniyning qalamiga mansub nasablar bo‘yicha yozilgan “Kitob al-Ansob” asarining juda katta e’tibor va sinchkovlik bilan qayta ko‘rib chiqilgan, xatolari tuzatilgan hamda kamchiliklari to‘ldirilgan shaklidir.[2] Ibn al-Asir ushbu uch jildli asarni isnodlarni qisqartirish va takrorlarni chiqarib tashlash orqali yanada qulay va foydali holga keltirgan. Kitobning bir qismi ilk bor Ferdinand Wustenfeld tomonidan (Gottingen, 1835) nashr qilingan. Uning to‘liq matni esa Husomuddin al-Qudsiy tomonidan (Qohira, 1938–1950) hamda

Mustafa Abdulvohid tomonidan (Qohira, 1971) chop etilgan. Imom Suyutiy ham ushbu kitobni “Lubb al-Lubob fiy tahrir al-Ansob” nomi bilan muxtasar qilgan[3].

Xulosa qilib aytganda, Ibn al-Asir islom tarixshunosligi, hadis ilmi va adabiyot sohalarida chuqur iz qoldirgan buyuk olimlardan biridir. U nafaqat o‘z davrining siyosiy, ilmiy va madaniy hayotini bevosita kuzatgan tarixchi, balki tarixiy voqealarni tahlil qilish, ularni tanqidiy ruhda baholash va ishonchli manbalarga tayangan holda bayon etish borasida ham alohida ilmiy salohiyat namoyon etgan. Uning “Al-Komil fit-tarix” asari umumiy tarixnavislikning eng muhim namunalaridan biri bo‘lsa, “Usd al-G‘oba” va “Al-Lubob” kabi asarlari hadis, tabaqot va nasab ilmlarida ham uning naqadar yuksak maqomga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Ibn al-Asir merosi o‘rta asr musulmon ilmiy tafakkurining yetuk namunasi sifatida bugungi kunda ham tarix, hadis va manbashunoslik tadqiqotlarida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan manbalar va adabiyotlar.

1. At-Tarix al-bahir, 118, 147, 157-betlar
2. Ibn al-Asir, Al-Lubob fiy tahzib al-Ansob, I–III, Qohira, 1357–1369
3. Abdülkerim Özaydın, “İbnü’l-Esîr, İzzeddin”, TDV İslâm Ansiklopedisi, c. 21, İstanbul, 2000, ss. 21–23.
4. Ибн ал-Асир. Полный свод истории («Ал-Камил фи-т-та’рих») / Перевод с арабского, примечания и комментарии П. Г. Булгакова; Дополнения к переводу, примечания и указатели Ш. С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 560 с.
5. Ibn al-Asir. Al-Komil fit-tarix (Mukammal tarix) / Arab tilidan tarjima, izoh va sharhlar muallifi N. Ibrohimov. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –528 b.
6. Ibn al-Athir. The Chronicle of Ibn al-Athir for the Crusading Period from al-Kamil fi'l-ta'rikh. Parts 1–3 / Translated by D. S. Richards. –Aldershot: Ashgate, 2006–2008. (Crusade Texts in Translation).

[1]Hozirgi Iroqning shimoli-g'arbiy qismidagi Nineva shahrining Markazi hisoblanadi.

[2]Ibn al-Asir, Al-Lubob fiy tahzib al-Ansob, I–III, Qohira, 1357–1369

[3]Abdülkerim Özaydın, "İbnü'l-Esîr, İzzeddin", TDV İslâm Ansiklopedisi, c. 21, İstanbul, 2000, ss. 21–23.